

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 17 403,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 3,9 % ga yetdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>14 755,2</b>	<b>17 403,4</b>	<b>108,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 467,9	17 042,3	108,7
mahsulotlarga sof soliqlar	287,3	361,1	113,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 467,9</b>	<b>17 042,3</b>	<b>108,7</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 917,3</b>	<b>2 277,7</b>	<b>104,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 783,7</b>	<b>4 492,1</b>	<b>110,9</b>
sanoat	2 708,3	3 224,1	108,8
qurilish	1 075,4	1 268,0	116,1
<b>xizmatlar</b>	<b>8 766,9</b>	<b>10 272,5</b>	<b>108,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 559,1	4 308,7	114,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 057,5	1 324,5	112,8
boshqa xizmat tarmoqlari	4 150,3	4 639,3	102,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 444,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,8 % ga yuqoridir.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2025- yil	2026- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>13,3</b>	<b>13,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,1</b>	<b>26,3</b>
sanoat	18,7	18,9
qurilish	7,4	7,4
<b>xizmatlar</b>	<b>60,6</b>	<b>60,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	24,6	25,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,3	7,8
boshqa xizmat tarmoqlari	28,7	27,2



2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 13,4 % ni, sanoat tarmog‘i 18,9 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 60,3 % ni tashkil qildi.


## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'lishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2025 - yilning yanvar-martida – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 5,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,4 %), sanoatda – 108,8 % ( 18,9 %), qurilishda – 116,1 % ( 7,4 %), xizmatlar sohasida – 108,7 % ni ( 60,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,9 % ( 25,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,8 % ( 7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan ( 27,2 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,6 % va sanoat sohasida – 109,5 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 11 592,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 9 848,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,0 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 68,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

9 848,2

68,1 %

2026- yil

11 592,7

68,0 %

